



MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOV - TAJVID ILMIDA YETUK OLIM

Sevinch Salaydinova

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Islomshunoslik" yo'nalishi 2-kurs talabasi

Sherzodjon Umaraliyev

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO" kafedrası Ilmiy rahbar
dotsenti v.b., PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17919060>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 10-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 13-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

*Tajvid ilmi, Munavvar qori
Abdurashidxonov, Abduhakim qori
Komiljon o'g'li, maxrajlari, qoidalar
qiyosiy tahlili, didaktik yondashuv*

ABSTRACT

Ushbu maqolada tajvid ilmi bo'yicha ikki muhim manba — Munavvar qori Abdurashidxonovning "Tajvidul Qur'on" hamda Abduhakim qori Komiljon o'g'lining "Tajvid (Qur'on o'qish qoidalarini)" asarlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki muallifning ilmiy merosi, darsliklarining tuzilishi, mazmuni va metodologik yondashuvlari o'rganilib, ularning o'quv jarayoniga qo'shgan hissasi aniqlanadi. Munavvar qori asarining qat'iy savol-javob shaklidagi didaktik modeli, tajvid qoidalarini qisqa, lo'nda va yodlashga qulay tarzda bayon etishi tahlil qilinadi. Abduhakim qori asari esa zamonaviy nashr sifatida vizual materiallar, maxraj diagrammalari va fonetik asosning keng yoritilishi bilan ajralib turishi ko'rsatib beriladi. Qiyosiy o'rganish natijasida sukunli nun, sukunli mim, mad turlari, idg'om qoidalarini, "ro" harfining tafxim-tarqiy holatlari, vaqf va sakta masalalarining har ikki manbada yoritilishi o'rganiladi. Munavvar qorida tajvid qoidalarining amaliy qo'llanilishiga urg'u berilgan bo'lsa, Abduhakim qorida zamonaviy didaktika vositalaridan foydalanilgan. Tadqiqot ushbu ikki manbaning bugungi tajvid ta'limi uchun metodik ahamiyatini yoritib, ular o'rtasidagi uslubiy farq va o'xshashliklarni ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Qur'oni karimni to'g'ri o'qish (tajvid) har bir musulmonning burchi bo'lib, ushbu ilmning qoidalarini manbalarda turli metodologiyalar asosida bayon etiladi. Ushbu maqolada ikki muhim manba hisoblangan Munavvar qori Abdurashidxonovning "Tajvidul Qur'on" (Savol-Javob formatida, 31 dars) va Abdulhakim qori Komiljon o'g'lining "Tajvid (Qur'on o'qish qoidalarini)" (2018 yilda nashr etilgan, 33 dars) asarlari tajvid qoidalarini taqdim etish uslubi va mazmun jihatdan tahlil qilinadi.

Mualliflar hayoti va ilmiy faoliyati. Munavvarqori Abdurashidxonov O'rta Osiyo jadidchlik harakatining yo'l boshchisi, XX asr o'zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teart tashkilotchilaridan biri, yozuvchi, va shoir. 1878-yilda Toshkent shahrining Shayhontohur dahasidagi Darxon mahallasida ziyoli oilada tug'ilgan. Otasidan yosh yetim qolgani tufayli dastlabki ta'lim-tarbiyani onasidan olgan. So'ng o'z davrining mashhur o'qituvchisi Usmon domladan qiroat ilmi va tajvidni o'rganib, hofizi Qur'on bo'lgan. Toshkentdagi Yunusxon madrasasida o'qigan. 1901-yilda usuli jadid maktabini ochgan va shu maktablar uchun maxsus o'quv dasturini tuzgan, darsliklar yozgan. 1903-yildan jadid maktablari ochib, dars bergan. Shunday maktablar uchun tovush usulida yozgan "Adibi avval" ("Birinchii adib", 1907) hamda "Adibi as-soniy" ("Ikkinchi adib", 1907) nomli o'qish kitoblari mavjud. Unda "Himmatli faqir" she'ri keltirilgan. Mazkur o'qish kitoblari bir necha bor nashr etilgan. Munavvarqori ibn Abdurashidxon ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug'ullangan.

Abduhakim qori Matqulov 1964-yilda ziyolilar oilasida tavallud topgan. 1986-1990 yillarda Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutida tahsil olgan. U O'zbekiston musulmonlari idorasi tizimida turli yillarda mas'ul vazifalarda ishlagan. Jumladan, Xalqaro aloqalar bo'limi mudiri muovini, Ta'lim bo'limi mudiri, "Ko'kaldosh" islom bilim yurti mudiri, Toshkent shahridagi "Islom ota" jome masjidi imom-xatibi vazifalarida mehnat qilgan. Shuningdek, ko'p yillar davomida Kuvayt xalqaro xayriya jamg'armasining O'zbekiston vakolatxonasi bosh vakili lavozimida ham xizmat qilgan. 2019-yil 25-mart kuni Abduhakim qori Matqulov O'zbekiston musulmonlari idorasida maslahatchi lavozimiga tayinlandi. Hozirda Abduhakim qori Matqulov azim Toshkent shahrida qad rostlayotgan "Oq uy" jome masjidining imom-xatibi hisoblanadi. Abduhakim qori Matqulov mo'min-musulmonlarning diniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish yo'lida nashr ettirgan bir necha kitoblari xalqimizga manzur bo'lmoqda.

Metodologik tahlil. Ikki manba ham savol-javob uslubida yozilgan bo'lib, qamrab olgan mavzulari soni deyarli teng: 31 va 33 tani tashkil etadi. Ushbu mavzularda muhim ma'lumotlar savol tarzida berilib, javob qismida qisqa va muxtasar shaklda javoblar berilgan. Javoblarda Qur'oni karimdan misollar keltirib o'tiladi.

Munavvar qori asarida har bir darsda savol beriladi: "Savol: Qur'oni karimda necha harf bor?" va javobi beriladi: "Javob: 29 harf bor". Ushbu format o'rganuvchiga aniq tushuncha va yodlash uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Abduhakim qori kitobida Munavvar qorining uslubida takrorlansa ham, ushbu asar 2018-yilda, zamonaviy shaklda chop etilgani bois mahrajlar mavzusida vizual tasvirlari (rasmlar) ham keltirilgan. Bu uning zamonaviyroq, vizual-didaktik yondashuvga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mavzular qiyosiy tahlili. Asarlar tajvidning fundamental qoidalarini yoritishda ketma-ketlikda sezilarli farqlarga ega. Munavvar qori Abdurashidxonov sukunli nun, sukunli mim va madlarga tehgishli qoidalarga nisbatan ko'p ahamiyat qaratgan. Ushbu mavzularni dastlab zikr etgan. Bu orqali muallif tajviddagi qoidalarining muhimlik darajasini belgilab bergan.

Abduhakim qori asarida esa, maxrajlar mavzusiga katta e'tibor qaratilgani kuzatiladi. Muallif 17ta maxraj o'rni, 5ta maxraj a'zosiga tegishli o'rinlarni vizual ko'rinishda sodda va tushunarli shaklda berib o'tgani ahamiyatga molik. Munavvar qori Abdurashidxonov tajvid asarida esa, madlar mavzusidan so'ng maxrajlar borasida qisqa shaklda to'xtab o'tilgan.

Ikka manba ham “Mad qoidalari” mavzusiga katta e’tibor qaratadi hamda ularni bir necha darslarga bo’lib o’rgatadi. Munavvar qori Abdurashidxonov sababi madni hamza va sukun deb ikkiga ajratadi, sukunni esa sukuni lozim va sukuni oriz deb ta’riflaydi. Mad muttasilda to’rt alif cho’zishni vojib deb ko’rsatadi, mad lozimda ham to’rt alif cho’zishni vojib deydi. Mad munfasilni esa bir alifdan to’rt alifgacha cho’zishni joiz deb ta’riflaydi.

Ikkala asarda ham idg’om mutamosilayn, mutajonisayn, mutaqoribayn mavzulariga to’xtab o’tilgan. Munavvar qori Abdurashidxonov ularning maxraj va ism jihatdan yaqinligini tushuntirgan. Masalan, idg’om mutajonisaynni maxrajda bir, ismda boshqa bo’lgan harflar orasida yuz berishini misollar bilan ko’rsatadi.

Qoidalarni bayon qilishdagi o’ziga xoslik. Munavvar qori iste’lo harflarini og’izni to’ldirib, ovoznı yuqori ko’tarib o’qiladigan 7 ta harf ekanligini ta’kidlaydi: خ ص ض غ ط ق ظ. Iste’fola harflari esa og’izni yoyib, ovoznı ingichka qilib o’qiladigan qolgan 22 ta harfdır.

Izhor harflari 6 ta: ع ء غ ح خ. Izhorda nunni bildirib o’qish talab etiladi. Iqlob harfi 1 ta: ب (be). Iqlobda nunni mimga almashtirib, dimog’ bilan o’qish lozim. Idg’om ikki xil: g’unnali (ي م ن و) va g’unnasiz (ل ر). G’unnali idg’omda dimog’dan chiqadigan ovoz bilan birga kirgizib o’qiladi. Munavvar qori Abdurashidxonov الدُّنْيَا kabi bir kalimada kelgan sukunli nunlarda idg’om qilmasdan, izhor qilib o’qish zarurligini alohida sharhlaydi.

Ikkala manba ham “ro” harfining tafxim (yo’g’on) va tarqiq (ingichka) holatlarini batafsil yoritadi. Munavvar qorida tafximning 6 ta holati va tarqiqning 4 ta holati keltirilgan. Masalan, “ro” harfi zammalik yoki fathalik bo’lsa tafxim bo’ladi, kasralik bo’lsa tarqiq bo’ladi.

Vaqf (to’xtash) oyatlar orasida to’xtab, nafas olishga aytiladi. Munavvar qori vaqf alomatları (ط ~ ّ ~ ّ) va vaqfning turlarini (hoyi havvaz, alif, sukun bilan) sanab o’tadi.

Sakta ikki kalima orasida nafas olmasdan biroz to’xtab o’tishdir. Munavvar qori Abdurashidxonov sakta qilinadigan to’rt joyni (Kahf, Yosin, Qiyomat, Mutaaffin suralarida) misollar bilan keltirgan.

Munavvar qori o’z asarini ta’vvuz va Basmala qoidalari bilan yakunlaydi. Qur’on o’qishdan avval ta’vvuz aytish mustahab, sura boshida basmala aytish esa sunnatdir, deya yozadi. Munavvar qorida basmaladagi الرحيم ning mimi nechta surada qo’shib o’qilishi (11 sura boshida) hamda nechta surada sukun bilan vaqf qilib o’qilishi (9 sura boshida) batafsil sanab o’tilgan.

Xulosa

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, Munavvar qori Abdurashidxonovning “Tajvidul Qur’on” asari savol-javob shaklidagi o’zining qat’iy didaktik tuzilmasi bilan ajralib turadi. Uning asarida mazkur tushunchalarni o’zlashtirish oson va qulay. Abdulhakim qori Komiljon o’g’lining “Tajvid” asari (Mundarija qismiga ko’ra) qoidalarni an’anaviy darslar ketma-ketligida bergan bo’lib, u o’zining birinchi darsini maxrajlarga bag’ishlash orqali fonetik asoslarga ustuvorlik berishini ma’qul topgan. Shuningdek, Abdulhakim qori matnida vizual yordamchi materiallar (maxrajlarning diagrammalari) ham mavjud. Bu uning yangi nashr ekanligi va zamonaviy o’qitish usullarini qo’llayotganligidan dalolat beradi.

Qiyosiy tahlil natijasida, ikkala manba ham tajvidning sukunli nun, mad, idg’om, ro harfi qoidalari, vaqf, sakta kabi barcha asosiy mavzularini qamrab olgan, ammo ularni o’rgatish tartibi va bayon etish uslubi o’ziga xos farqli ko’rinishlarga ega.